



PARRANDACHILIK XO'JALIKLARIDA YUQUMLI KASALLIKLARNI OLDINI OLIH CHORA TADBIRLARI

¹Xo'jaxonov Shoxruzxon Idirisxo'ja o'g'li

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali mustaqil izlanuvchisi

²Xo'jaxonova Moxinur Farxodjon qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali talabasi

³Davlatov Ravshan Berdievich

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti, v.f.d, professor

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7906866>

ARTICLE INFO

Received: 30th April 2023

Accepted: 07th May 2023

Online: 08th May 2023

KEY WORDS

Dezinfekcion tadbirlari, Xaqiqiy
dezinfeksiya, Dezinseksiya,
Deratizatsiya, Fizikaviy usul,
Kimyoviy usul, gradus.

ABSTRACT

Ushbu maqolada parrandachilik xo'jaliklarida uchraydigan yuqumli kasalliklarni oldini olish chora tadbirlari to'g'risida bayon qilingan.

Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda veterinariya amaliyotida parrandachilikda mavjud imkoniyat va ishlab chiqarish zahirasi to'la foydalanilmasdan kelinmoqda. Bu borada muhim vazifa parrandalarni sog'lom asrab o'stirish va mahsuldorligini oshirish hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, parrandachilikka sezilarli darajadagi iqtisodiy zarar ayrim yuqumli va invazion kasalliklar hamda parrandalarni asrash va oziqlantirish bilan bog'liq kamchiliklar oqibatida sodir etilmoqda. Parrandachilik xo'jaliklariga katta talofat keltiradigan bir qator yuqumli kasalliklar (tuberkulyoz, yuqumli loringotraxeit, yuqumli bronxit, Nyukasl, marek kasalligi, gripp, mikoplazmoz va boshqalar) bilan birgalikda shartli patogen mikroorganizmlar (Sammonella, esherixiya koli, pastrella,) chaqiradigan kasalliklar uchraydi. Ushbu mikroorganizmlarning har biri yoki alohida har 4 chi sog'lom parrandada topiladi va ko'zga tashlanadigan klinikaviy kechadigan kasallik chaqirmasligi mumkin. Bundan tashqari, shartli patogen mikroblar yashirin holda organizmda yashab, mikrob tashuvchanlik holatini keltiradi.

Ko'rinishidan sog'lom parrandada serologik tekshiruvda topilgan shartli patogen mikroblar turli omillar (stress, shovqinlar, transport shovqini, sovushi, isib ketishi, yaxshi oziqlantirilmasligi, suvsiz qolishi, ratsion sifatsiz va tshliqsiz bo'lishi, turli surunkali, latent, yuqumli, invazion va yuqumsiz kasalliklari ta'siri natijasida yuqumli kasalliklarni chaqiradi.

Shartli patogen mikroorganizmlarga qarshi ishlar o'tkazilishi biroz qiyin, chunki ushbu mikroblar keltiradigan kasalliklarga diagnoz qo'yilishi qo'shimcha tekshiruvlarni talab etadi. Ularni davolash uchun sarf xarajatlar miqdori ortib, xo'jalikka iqtisodiy zarar yetkazadi. Shuning uchun ham yuqumli kasalliklarni o'rganish, oldini olish va davolash tadbirlarini doimo takomillashtirib, antibiotiklarni qo'zg'atuvchilarning sezgirlik darajasiga moslab



qo'llab, ularni oldini olish orqali parrandalarning bosh sonlarini saqlab qolib, yuqori mahsuldorlikka erishish veterinariya xizmatining dolzarb vazifasi bo'lib hisoblanadi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi kurashish tadbirlar dasturi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan bir qator qarorlar bilan belgilangan (№171, 03.04.2017) Xorazm viloyatida parrandachilikni yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»). Ushbu qarorlar va oldindan qabul qilingan «Veterinariya Nizomi» bo'yicha xo'jaliklardagi, kompleks, fabrika, sexlardagi sanitariya meyori va bajariladigan qoidalariga javobgarligini ushbu korxonalarni rahbarlariga yuklatilgan.

Yuqumli kasalliklarni oldini olish va qarshi kurashish tadbirlari quyidagilardan iborat:

1. Yuqumli kasalliklarni chiqishini va tarqalishini oldini olishga qaratilgan davlat sog'lomlashtirish tadbirlari.
2. Yuqumli kasalliklari bilan kasallanishini pasaytirishga va yo'qotishga qaratilgan veterinariya tadbirlari.
3. Xo'jaliklarda o'tkaziladigan sanitariya tadbirlari.
4. Yuqumli kasalliklarni tashqaridan (chet davlatlardan, qo'shni xo'jaliklardan) kirib kelishini oldini olishdir.

Xalqni yashash tarzini o'sishi, sano'at, madaniyat rivojlanishi davlat rejalari bo'yicha olib boriladi. Bunga sanitariya nazorat tadbirlari ham kiradi: chorva, parranda komplekslari, fabrikalar, ularni mahsulotlarini ishlov berish, qayta ishlash korxonalari, chiqindilarga ishlov berish korxonalarini qurishda yuqumli kasalliklarni paydo bo'lishini va tarqalishini oldini oladigan sanitariya talablariga javob berishi inobatga olinadi.

Yuqumli kasalliklarga qarshi maxsus tadbirlar qo'yidagilardan iborat:

1. Profilaktik
2. Epizootiyaga qarshi tadbirlar.
3. Profilaktik (oldini olish) tadbirlar yuqumli kasallik bor yo'qligiga qaramasdan o'tkaziladi. Ushbu tadbirlarning maqsadi – yuqumli kasalliklarni paydo bo'lishini oldini olishdir. Epizootiyaga qarshi tadbirlar esa yuqumli kasallik paydo bo'lishidan so'ng o'tkaziladi.

Dezinfekcion tadbirlari.

Tashqi muhit obektlarida yuqumli kasallik qo'zg'atuvchilarini yo'qotish uslub va vositalari dezinfeksiya deb ataladi. Dezinfeksiya turlari quyidagicha bo'ladi:

1. Xaqiqiy dezinfeksiya (respirator infeksiyalarda o'tkaziladi)
2. Dezinseksiya (terili infeksiyalarda o'tkaziladi)
3. Deratizatsiya (yuqumli kasalliklarni uzatilish mexanizmida kemiruvchi hayvonlarni yo'qotishga qaratilgan. Kemiruvchi hayvonlar infeksiyanini uzatuvchisi sifatida bo'ladi – tuyalar o'lati).

Profilaktik tadbirlarda dezinfeksiya bilan bir qatorda sterilizatsiya ham keng qo'llaniladi. Biron bir muhitda mikroblarni hammasini (patogen, apatogen, sporali) to'liq yo'qotilishi-zararsizlantirilishi sterilizatsiya deb ataladi. Sterilizatsiya mikrobiologik amaliyotda keng qo'llaniladi.

Dezinfeksiya tadbirlari o'tkazilganda, dezinfeksiyalovchi ob'ekt turini, muhitning fizikoviy va kimyoviy tarkibini, dezinfeksiyalovchi vositaning yoki uslubning ta'sir etish muddatini va haroratini inobatga olgan holda, dezinfeksiya uslubi tanlanadi. Dezinfeksiya usullari 3 xil bo'ladi :



1. Fizikaviy usul. Bunda dezinfeksiya yuqori harorat (qaynatish, qizdirish, alanga bilan ishlov berish), quritish, bosim (hujayra sitoplazmatik membranasi funksiyasi buzilib, bir qator hayotiy muhim fermentlar denaturatsiyaga uchraydi), quyosh nurlari, kosmik (yoki letal, yoki mutagen ta'sir etadi) va rengen nurlari, ultrabinafsha nurlari (100-380 nm bo'lib letal yoki mutagen ta'sirga ega), elektr toki, ultratovush, aerionizatsiya ta'siri orqali amalga oshiriladi.

2. Kimyoviy usul. Ushbu usul tibbiyot va veterinariya amaliyotida keng qo'llaniladigan bo'lib, dezinfeksiya uchun bir qator kimyoviy moddalarni qo'llashdan iborat:

Kislotalarni bakteritsid xususiyatlari ularning elektrolitik dissotsiatsiyasiga bog'liq (tarkibidagi N ionlarning miqdoriga va ularning oksidlovchi xususiyatlariga).

Ishqorlarning faolligi esa dissotsiatsiyaning darajasiga va ON-ionlarning miqdoriga bog'liq. Ishqorlardan eng faol KON hisoblanadi, keyin NaON va boshqalari. Kislotalarga o'xshab, ishqorlar ham ayrim mikroorganizmlarga ta'sir etolmaydi.

Spirtlarning bakteritsid faolligi qatoridagi molekular massasining o'sishi bilan yuqorilab ketadi. Eng faol metil, keyin etil, propil, butil, amil va xokazo.

Yuzaki faol moddalarga yog' kislotalari, sovunlar va detergentlar kiradi. Ushbu moddalar hujayrani yuzaki tortilish kuchini pasaytirib, sitoplazmatik membranani funksiyasini buzadi.

Fenol, krezol va ular qatoridagi moddalar hujayra qobig'ini va keyinchalik oqsillarini yemiradi. Ushbu moddalar bakteritsid, fungitsid va viruslarni o'ldirish xususiyatga ega.

Oksidlovchi moddalar – xlor, yod, kaliy permanganati, vodorod peroksidi, xlorli oxak, xloraminlar mikroob oqsillarini inaktivatsiya va denaturatsiyaga uchratadi.

Og'ir metall tuzlari (mis, rux, kumush) bakterial hujayralarini sitoplazmasini yoki fermentlarini koagulyatsiyaga uchratadi, viruslarni ham halok qiladi. Kumushli buyumlar suvga bakteritsid xususiyat taqdim etadi, chunki bakteriyalarning sitoplazmatik membranani o'tkazuvchanligini oshiradi.

1. Biologik usul ko'pincha tibbiyotda va veterinariyada kasallikni aniqlash, davolash, oldini olish uchun qo'llaniladi (antibiotiklar, bakteriofaglar, bakteriotsitlar).

Dezinfekcion tadbirlar ikki xil bo'ladi: o'choqli yoki majburiy va profilaktik. O'choqli dezinfeksiya yuqumli kasallik chiqqan vaqt o'tkazilib, maqsadi va o'tkazilish muddati bo'yicha joriy va yakuniy bo'ladi.

Dezinfeksiya o'tkazilganda quyidagilarga e'tibor berilishi kerak:

1. Dezinfektsiyalaydigan ob'ekt turiga;
2. Zararsizlaydigan muhitda patogen mikroblarning chidamligiga;
3. Dezinfekcion vositalarning xususiyatlariga va imkoniyatlariga (mikroblarni ma'lum bir muhitda va haroratda o'ldirish xususiyatiga).

Parrandachilik xo'jaliklarida veterinariya dezinfektsiyasi ob'ektlari bo'lib parrandalar saqlanadigan binolar, ulardagi moslama va uskunalar, maxsus kiyim-kechak, parrandalar binolariga yaqin yaylovlar, go'ng hisoblanadi.

Parrandachilik xo'jaliklariga kirishda poyafzal dezinfektsiyasi uchun dezinfekcion vannochka (uzunligi 1,5 m, chuqurligi 10 sm) qo'yiladi va dezinfektsiyalovchi eritma bilan gilamchasi har kuni dezinfektant bilan shimdiriladi. Dezinfektsiyalovchi eritma sifatida 2% li o'yuvchi natriy, 2% faol xlor saqlaydigan xlorli oxak, 5% li kreolin emulsiyasi, 4% li ksilonaft emulsiyasi qo'llaniladi. Sovuq kunlarda, havoning minusli haroratda ushbu eritmalarga 10%



osh tuzi qo'shiladi. Binolarning har bir ajratilgan seksiya-boksga kirishida dezinfeksion gilamchalar bo'lishi kerak.

Dezinfeksiya ikkita ketma-ket tadbirdan iborat:

1. Mexanik tozalash.
2. Xaqiqiy dezinfeksiya.

Mexanik tozalashni maqsadi-zararsizlanadigan binolar va hududlarni go'ng, axlat va boshqa supurindilardan to'lig'icha tozalash, chunki ushbu narsalar dezinfeksiyalovchi moddalarni ta'sirini kamaytiradi. Go'ng, ozuqalar qoldiqlari, ishlatilgan ifloslangan to'shamalar yaxshilab suvlanadi va tozalanadi. Keyin pol, devorlar, oxurlar suvlanadi va tozalanadi. Keyingi bosqichda deraza va shiftlar tozalanadi.

Xaqiqiy dezinfeksiya binolardagi devor, eshik, deraza, pol, shift, moslama va uskunalar yuzalari kimyoviy dezinfeksiyalovchi moddalar bilan suvlash yoki purkash (aerozol) yo'li bilan amalga oshiriladi. Ayrim ifloslangan (zararlangan) ob'ektlar (temir, metall kataklar) alanga yordamida kuydirish, yoki qaynatish, yuqori haroratda quritish, yoki to'g'ri quyosh nurlarini ta'sir ettirish yo'li bilan dezinfeksiyalanishi mumkin. Parrandalar saqlanadigan binolarni profilaktik, joriy yoki yakuniy dezinfeksiyasi uchun zararsizlanadigan 1 kv.m ga 2 l dezinfeksiyalovchi eritma sarflanadi. Hamma dezinfeksiyalovchi eritmalarini harorati 70 gradus bulsa, ta'sir etish xususiyati oshadi (aerozol purkach 25-30 smdan uzoq bo'lmasligi kerak). Kalsiyalangan sodani harorati 90 gradus bo'lishi kerak.

Sog'lik uchun zararli dezinfeksiyalovchi moddalar (o'yuvchi natriy, oltingugurtli-karbol eritmasi, xlor, formaldegid eritmaları) suvlab qo'llanilganda, hayvon va parrandalar binolardan chiqarilishi kerak. Dezinfeksiyadan so'ng 2-3 soat o'tganda kataklar, oxurlar yuviladi, binolar esa shamollantiriladi. Aerozol dezinfeksiyada esa furajli ozuqalar, parrandalar binolardan chiqariladi.

Dezinfeksiyalashda avval pol, devorlar, derazalar, shift, oxurlar, moslama va uskunalar ishlov beriladi va oxirida yana pol dezinfeksiyalanadi. Aerozol dezinfeksiyani o'tkazish uchun tozalashdan so'ng bino to'liq germetik yopiladi (ventilyatsion lyuklar, deraza va eshik teshiklari) va binoning ichkarisidagi harorati 15 gradus, namlik 60-100% ta'minlanadi. Suvlash usuli bilan dezinfeksiyalangandan keyin bino 3 soatga yopiladi va ushbu ekspozitsiya muddatidan so'ng yaxshilab shamollantiriladi, oxurlar yuviladi. Aerozol uslubdagi dezinfeksiyada formol preparatlar bilan ekspozitsiya muddatidan keyin parrandalar kirgazilsa derazalarni ochiq qoldirish kerak; parrandalar birdaniga dezinfeksiyadan keyin kiritilishi kerak bo'lsa formaldegidni nashatir spirt aerosoli bilan neytrallashtirish lozim. Bunda spirt miqdori formaldegidning yarimiga teng olinadi.

Parrandachilik xo'jaliklarida profilaktik dezinfeksiyani o'tkazilishi.

Parrandachilik xo'jaliklarida profilaktik dezinfeksiya parrandachilik texnologiyasiga va parrandalar bilan to'ldirilishiga qarab o'tkaziladi:

- parrandalar yaylovli saqlanadigan binolar bir yilga ikki marta – bahorda va kuzda;
- tuxum yo'nalishidagi tovuqlar kataklarda saqlanadigan binolar- har safar yangi tovuqlar bilan to'ldirilganda;
- jo'jalar katakli o'stiriladigan va saqlaydigan bino va sexlar – parrandalarning har bir partiyasini joylashtirganda va o'tkazganda;



- ajratib olingan xo'rozchalar va boshqa parrandalar saqlaydigan bino va sexlar- har safar parrandalarning partiyasi (to'dasi) almashganda;
- broylerlar o'stirish sexlari- har safar jo'jalarning yangi partiyasi joylashtirilganda;
- parrandalar chuqur to'shamalarda saqlaydigan bino va sexlar- bir yilda bir marta, to'shama almashganda olib boriladi.

Parrandachilik xo'jaliklarida profilaktik dezinfektsiyasini o'tkazish uchun parrandalar 1,2,5 yoki 6 kunga binolardan chiqariladi. Binolar tozalanadi, ta'mirlanadi, moslama – uskunalar bilan birgalikda hamma joylar 0,25 % li sulfanol, 1,5-2 % li issiq kalsiyalangan soda yoki qaynoq suv bilan yuviladi va keyin dezinfektsiyalanadi.

Dezinfektsiyadan so'ng binolar 3 soatga germetik yopiladi (ekspozitsiya muddati). Kichik hajmli uskunalar issiq dezinfektsiyalovchi moddaga to'lig'icha cho'ktirilib, ma'lum bir muddatga qoldiriladi.

Inkubatorlar profilaktik dezinfektsiyasi tuxumlarni inkubatsiyasidan oldin va keyin o'tkaziladi. Dezinfektsiyadan oldin inkubator binosi, inkubatorlar, tuxum omboridagi moslama va uskunalarining hammasi yaxshilab tozalanadi. Inkubatoriy devorlari, shifti 20% li yangi so'ndirilgan oxaq eritmasi bilan oxaqlanadi, buyukli yoki kafelli devorlar esa yuqorida ko'rsatilgan dezinfektsiyalovchi eritmalarni birontasi bilan ishlov beriladi. Shkafli va xonali inkubatorlarni formaldegid eritmalari bilan dezinfektsiyalash maqsadga muvofiq. Buning uchun inkubatorning ichki hajmini 1 kub metriga 45 gr formalin, 30 gr kaliy permanganat va 20 ml suv olinadi hamda 35-37 gradusda 60-80% namlik sharoitida formaldegidli bug' bilan dezinfektsiya amalga oshiriladi. Bug'li formaldegid olish uchun kaliy permanganat sapol idishga solinadi, idish esa satilga joylashtiriladi (bug'lantirilganda suyuqlik polga sachramasligi uchun). Satil inkubator polining o'rtasiga quyiladi. Permanganat kaliyning kristallariga suv va formalin kuyiladi va inkubator 1 soatga yopiladi. Ekspozitsiya vaqti tugagandan keyin inkubator shamollantiriladi. (Farmalin nashatir spirt bilan neytrallanishi mumkin) Jo'jalar tashiydigan idish – taralar har bir qo'llashdan oldin va keyin dezinfektsiyalanadi.

Rejali profilaktik dezinfektsiyadan tashqari parrandachilik xo'jaliklardagi binolar va inkubatorlar yanada bir oyda bir marta sanitar kunlarida dezinfektsiyalanadi.

Yuqumli kasalliklarda o'tkaziladigan majburiy dezinfektsiya.

Parrandalar tuberkulezida profilaktik dezinfektsiya yuqorida aytib o'tilgan muddatda va tartibda o'tkaziladi. Dezinfektsiyalovchi vositalardan quyidagilar qo'llaniladi: 3% formaldegid va 3% o'yuvchi natriy saqlaydigan eritma (yuqori yukumsizlantirish faolligiga ega, yakuniy dezinfektsiya uchun qo'llanilishi maqsadga muvofiq); 4% karbol kislota, 10% kerosin, 5% kreolin va 81% suv saqlaydigan eritma; 20% yangi so'ndirilgan oxaq 3 marta 1 soat oraligi bilan; 5% xlorli oxaq saklaydigan eritma; 10% li xlorli yod 3 soatli ekspozitsiya-muddati bilan. Parrandalarni binodan chiqarishni iloji bulmasa, oraligi 1 soat 3 marotabali 20% li oxak eritmasi bilan dezinfektsiyalanadi. Aerosol dezinfektsiyalash uchun 3 qism formalin va 1 qism kreolin yoki ksilonaft saqlaydigan eritma 24 soatli ekspozitsiyada binoning 1 kub metriga 20 ml hisobidan ko'llaniladi.

Parrandalar pasterellezida 20% li yangi so'ndirilgan oxaq; issiq 3% li kreolin emulsiyasi(2 soat); 2% li ksilonaft (2 soat); 2% li issiq o'yuvchi natriy (1 soat);1% faol xlor saqlaydigan xlorli oxaq (harorati 16 gradus, ekspozitsiya 1 soat); 0.5% li formaldegid



eritmasi (16 gradus, 3 soat) qo'llanilishi mumkin. Aerosol dezinfeksiya uchun 20% li formaldegid eritmasi 3 soatli ekspozitsiyada binoning 1 kub metriga 20 ml hisobidan qo'llaniladi.

Parrandalar tifida 1 soat oraligi bilan 2 marta 20% li yangi so'ndirilgan oxak; 2 faol xlor saqlaydigan xlorli oxak; 2% li issiq o'yuvchi natriy; 5% li kreolin; 5% li ksilonaft; 2% li formaldegid; 3 soatli ekspozitsiyada 10% li issiq kalsiyalangan soda eritmasi ishlatilishi mumkin. Parrandalarni chiqarishni iloji bulmasa, dezinfeksiyani 20% li yangi so'ndirigan oxaq bilan, oralig'i 1 soat 2 marta o'tkazilishi lozim. Aerosol usulda dezinfeksiyasi formalin yoki formalin kreolinli aralashmasi (formalin 3 qismi va kreolin yoki ksilonaft 1 qism olinadi) bilan 6 soat davomida binoning 1 kub metriga 15 ml hisobidan o'tkaziladi.

Parrandalar pullorosi. Dezinfeksiya uchun 2% li issiq o'yuvchi natriy; 10% li issiq kalsiyalangan soda; 1% li formaldegid(2 soat); 3% faol xlor saqlaydigan oxak; 5% li ksilonaft; 20% li yangi so'ndirilgan oxaq; 4% li issiq yoki 6% li sovuq naftalizol eritmalari qo'llaniladi. Tuproqli shuvalgan pollarni dezinfeksiyasi uchun 5% li o'yuvchi natriy yoki 5% faol xlor saqlaydigan xlorli oxaqlar olinadi. Aerosoli dezinfeksiyasi uchun formalin 1kub metriga 15 ml hisobidan(3 soat);20% lisini 20 ml hisobidan(3 soat); formaldegid-kreolin aralashmasi(yoki ksilonaft, yoki naftalizol)da 3 qism formaldegid va 1 qism kreolin bo'ladi va 3 soatli ekspozitsiyada binoning 1 kub metriga 20 ml hisobidan qo'llaniladi.

Parrandalarning kolibatsillez, salmonellez, psevdotuberkulez kasalliklarida dezinfeksiya maqsadida 20% li yangi so'ndirilgan oxaq (2 marta); 2%faol xlor saqlaydigan oxaq; 2% li issiq o'yuvchi natriy; 5% li kreolin; 2% li formaldegid; 5% li ksilonaft eritmalari qo'llaniladi. Dezinfeksiya paytida parrandalar binodan chiqarilmasa, dezinfeksiya oraligi 1 soat 2 marotabali bo'lib, 20% li yangi so'ndirilgan oxaq bilan o'tkaziladi.

Parrandalarni yuqumli laringotraxeit kasalligi. Dezinfeksiya uchun 2% li issiq o'yuvchi natriy (2 soat); 2% li formaldegid (2 soat); 2% faol xlor saqlaydigan oxak (3 soat); 2 marta oraligi 1 soat bo'lgan tartibda 20% li yangi so'ndirilgan oxak; 10% li kalsiyalangan soda (4 soat) ishlatiladi. Bundan tashqari, binolar havosini dezinfeksiyalash maqsadida sut kislotasi yoki rezorsin binoning 1 kub metriga 25 mg hisobidan purkalanishi mumkin. Ushbu preparatlar kuni davomida 4-5 marta (oraligi 1,5-2 soat) aerosol generator yordamida purkalanadi yoki elektroplitada bug'lantiriladi. Parrandalar dezinfeksiya vaqtida binodan chiqarilmasa ham bo'ladi.

Parrandalar chechagi. Parrandalarning chechak kasalligida dezinfeksiyalovchi moddalardan 3% li o'yuvchi natriy (3soat); 2% faol xlor saqlaydigan oxak (4 soat); 2% li formaldegid (3 soat); oraligi 1 soat 2 marotabali 20% li yangi so'ndirilgan oxak qo'llaniladi.

Parrandalarning o'lati. Dezinfeksiya uchun 2% issiq o'yuvchi natriy; 2% faol xlor saqlaydigan oxak; 2% formaldegid(hammasining ekspozitsiya muddati 3 soat); oraligi 1 soat 2 marotabali 20% li yangi so'ndirilgan oxak olinadi.

Gozchalarni virusli gepatiti. 1% li formaldegid; 4% li issiq o'yuvchi natriy (6 soat); 1.5% faol xlor va 1.2% erkin ishqor saqlaydigan natriy gipoxloridi (6 soat); 5% li 1 xlorli yod eritmasi (6 soat) dezinfeksiyalash maqsadida qo'llaniladi. Aerosol dezinfeksiyalash usulida formalin (1 kub metr ga 15 ml, 12 soat); 20% li formaldegid (1kub metr ga 20 ml, 24 soat ekspozitsiya)qo'llaniladi.



Parrandalarni mikoplazmoz kasalligida dezinfeksiya uchun 2% aktiv xlor saqlaydigan oxak (2 soat); 20% li issiq o'yuvchi natriy (2 soat); 2% li formaldegid (2 soat); 3% li issiq ksilonaft (3 soat); 3% li 1xlorli yod (1 soat); 20% li yangi so'ndirilgan oxak qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar. Parrandachilik xo'jaliklarida jo'jalarni zoogigiyenik talablarga mos keladigan binolarda saqlash, oziqlantirish sifatini yaxshilash va sanitariya talablarini bajarish yuqumli kasalliklarni kelib chiqishini oldini olishda muhim vazifalardan hisoblanadi.

-shuni takidlash joizki, yuqorida keltirib o'tilgan profilaktik tadbirlar ijobiy natijalar berib kelayotganini inobatga olib, ushbu usullar yordamida parrandachilik xo'jaliklarida yuqumli kasalliklarni oldini olish maqsadida qo'llash tavsiya etiladi.

References:

1. G'aniyev, S. S. (2023). VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZASI LABORATORIYALARIDA SHAKAR ASALI HAMDA SHAKAR QO'SHILGAN ASAL MAHSULOTLARINI ANIQLASH. AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI, 2(4), 66-69.
2. Davlatov, R. (2021). ПАРРАНДАЧИЛИК ХЎЖАЛИКЛАРИДА КОЛИБАКТЕРЁЗ КАСАЛЛИГИНИ ОЛДИНИ ОЛИШДА ЭНРОФЛОКС-10% НИНГ САМАРАДОРЛИГИ. Scienceweb academic papers collection.
3. БУЗИЛИШЛАРИ, Ё. Улуқов Беҳзод Каромат ўғли магистранти, Хўжахонов Шохрузхон Идирисхўжа ўғли магистранти, Жуманазарова Мадина Қахрамон қизи.
4. Davlatov, R. (2021). Эффективность ENROVIT-O при химической профилактике колибактериоза цыпля. Scienceweb academic papers collection.
5. Davlatov, R. (2021). Товуқ эймериозининг кимёпрофилактикасида эймериостатикларнинг самарадорлиги. Scienceweb academic papers collection.
6. Berdiyevich, D. R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS.
7. Davlatov, R. (2023). TO DETERMINE THE EFFECTIVENESS OF ANTIBIOTICS IN PREVENTING CHICKEN COLIBACTERIOSIS BASED ON EXPERIMENTS. Scienceweb academic papers collection.
8. Xo'jaxonov, S., Xo'jaxonova, M., & Davlatov, R. (2023). TOVUQ EYMERIOZINING KIMYOPROFILAKTIKASIDA SAMARALI EYMERIOSTATIKLARNI ANIQLASH. Евразийский журнал медицинских и естественных наук, 3(4 Part 2), 75-78.
9. Zayniddinovich, Z. R. (2022). REVIEW OF THE LITERATURE ON SEPSIS IN CALVES AND MEASURES TO PREVENT IT. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning, 3(1), 1-4.
10. Oglu, K. S. I., & Qizi, K. B. A. (2022). MEASURES FOR THE PREVENTION OF DISEASES CAUSED BY DISORDERS OF BEE NUTRITION AND FEEDING CONDITIONS. Academicia Globe: Inderscience Research, 3(3), 1-4.
11. Oglu, K. S. I., Oglu, Y. O. A., & Oglu, J. S. H. (2021). Viral hemorrhagic fever of rabbits ("hemorrhagic pneumonia", "necrotic hepatitis").



12. Subxonovich, H. P., Ergashevna, G. M., & Ogli, K. S. I. (2021). Distribution of helminthosis diseases of one-hoed animals. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(10), 880-883.
13. Mahamadaliyeva, M. U., & Agamurodov, O. A. (2021). MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DISPEPS DISEASE IN CALVES. *Ученый XXI века*, (10 (81)), 12-14.
14. Nurmamatovich, K. A., & Ogli, K. S. I. (2021). Effects of drugs on blood indicators in mixing chicken eimeriosis and pullorosis. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 615-617.
15. Maxamadaliyeva, M. U., Abduhalilova, G. I., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). BRUTSELLYOZ VA UNING LABORATORIYA DIAGNOSTIKASI. *INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION*, 2(15), 41-47.
16. Oglu, K. S. I., Zayniddinovich, Z. R., & Oglu, R. J. K. (2022). Review of the literature on sepsis in calves and measures to prevent it.
17. Худжамшукуров, А. Н. (2021). ТОВУҚ АСКАРИДИОЗИДА АСКАЗИН АНТИГЕЛЬМИНТИГИНИ ҚЎЛЛАШ НАТИЖАЛАРИ. *Интернаука*, (8-3), 44-46.
18. Davlatov, R. (2021). Бройлер жўжаларида айрим антибиотикларнинг самарадорлик кўрсаткичлари. *Scienceweb academic papers collection*.
19. G'oyipova, M. T. E., Xo'jaxonov, S., & Avliyoqulov, M. (2022). VETERINARIYA SOHASINING CHORVACHILIKNI RIVOJLANTIRISHDAGI O 'RNI VA TAMOYILLARI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(4), 238-240.
20. G'aniyev, S. S., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). VETERINARIYA LABORATORIYALARIDA SUTNI VETERINARIYA SANITARIYA EKSPERTIZADAN O 'TKAZISH TALABLARI. *Scientific Impulse*, 1(8), 586-592.
21. Ibrohimov, U. D., Maxamadaliyeva, M. U., & Xo'jaxonov, S. I. (2023). OTLARDA OSHQOZON-ICHAK TIZIMI PATOLOGIYASI. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 32-39.
22. Berdiyevich, D. R. (2023). METHODS OF DIAGNOSIS OF CHICKEN COLIBACTERIOSIS. *AGROBIOTEXNOLOGIYA VA VETERINARIYA TIBBIYOTI ILMIY JURNALI*, 2(4), 9-13.
23. Abduhalilova, G. I., Makhamadaliyeva, M. U., & Khojakhonov, S. I. (2023). FISH BRANCHIOMYCOSIS PREVENTION MEASURES. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 247-252.
24. Davlatov, R. (2021). Товуқ колибактериозининг кимёвий профилактикасида антибиотикларнинг самарадорлиги. *Scienceweb academic papers collection*.